

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA YOSHLAR HUQUQLARINING KAFOLATLARI

Ilmiy rahbar: Umurzakova Nargisa Muxtarovna

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

‘‘Huquqshunoslik’’ kafedrasi dotsenti

[Mobil: +998990129077. E-mail: nargisau71@gmail.com]

Meliboyeva Farida Murodilla qizi

Toshkent Davlat Agrar Universiteti Yurisprudensiya yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va uning yoshlar hayotidagi o‘rni va ahamiyati, yoshlarga oid normalarning yangicha talqini, ularda yoshlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy, madaniy va ekologik huquqlarining kafolatlari haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, yoshlar huquqlari kafolatlari, yoshlar imkoniyatlari, yoshlar siyosati, imkoniyat, yo‘l xaritasi.

Аннотация: В данной статье обсуждается новая Конституция, ее роль и значение в жизни молодежи, новое толкование молодежных норм, гарантии социальных, политических, экономических, личных, культурных и экологических прав молодежи.

Ключевые слова: новая редакция Конституции, гарантии прав молодежи, возможности молодежи, молодежная политика, возможности, дорожная картаю.

Annotation: In this article, the new version of the constitution and its role and importance in the life of young people, the new interpretation of norms related to young people, the guarantees of social, political, economic, personal, cultural and environmental rights of young people are discussed in detail.

Keywords: new version of the constitution, guarantees of youth rights, youth opportunities, youth policy, opportunity, road map.

Davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularning hayotda munosib o‘rnini topishi, mehnat bozori

talablariga muvofiq, muayyan kasb egasi bo‘lishi, tanlagan kasbi bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar hamda teng imkoniyatlar yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yoshlarga davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlar albatta ma‘lum bir normativ-huquqiy hujjat yoki yuridik ahamiyatga ega qonun bilan belgilab, davlat tomonidan kafolatlanganidagina, biz uni yoshlar huquqlari sifatida anglashimiz mumkin bo‘ladi. Masalan, davlat tomonidan yoshlarga oid normalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va u asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda yoshlarga har tomonlama va yuksak g‘amxo‘rlik ko‘rsatish masalasi davlat siyosatining ustuvor sohalaridan biri hisoblanadi. Aholining teng yarmidan ko‘pini tashkil etuvchi yoshlar jo‘shqin va serg‘ayrat ekani, mamlakatimizning zamonaviy asoslarda yanada taraqqiy etishining tayanch kuch-qudrati sanalgani uchun davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e‘tiborida bo‘lib kelmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga yoshlarning ishga joylashish, hordiq chiqarishga oid huquqlarini himoya qilish davlat zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklaydigan yangi normalar kiritilgani ham juda muhimdir.

Asosiy qonunimizning alohida bobi – XIV bob **“Oila, bolalar va yoshlar”** deb nomlanganiga hamda unda yoshlarga oid qator normalar o‘rin olganiga e‘tibor qaratish darkor. Bunday yangicha yondashuv, shubhasiz, Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligidan yaqqol dalolatdir.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizning 2021-yilni – **‘Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili’** deb e‘lon qilar ekan:

Birinchidan, BMT shafeligida Yoshlar huquqlari bo‘yicha butunjahon konferensiyasini o‘tkazish;

Ikkinchidan, BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining o‘ninchi forumida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya loyihasini taqdim etish;

Uchinchidan, BMTning Yoshlar huquqlari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisi institutini ta‘sis etish tashabbuslarini ilgari surdi.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi uni amalga oshirish bo‘yicha **“Yo‘l xaritasi”** qabul qilindi.

Konsepsiyada hal etishga qaratilgan asosiy vazifalar qatoridan jismonan sog‘lom, ma‘nan rivojlangan yigit-qizlarni tarbiyalash, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatlarini

ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilish, yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy islohotlarga faol jalb etish masalalari o'rin olgan.

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, 30-iyun – O'zbekiston Respublikasida **Yoshlar kuni** etib belgilandi. Shuningdek, 2020-yil 30-iyunda Prezident Farmoniga asosan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi – **O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi** tashkil etildi. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadigam ushbu Agentlik 2022-yildan boshlab o'z faoliyatida mahallagacha kirib bordi. Natijada qisqa vaqt ichida **700 ming nafardan** ziyod yigit-qizni rag'batlantirish uchun ularga **“yoshlar daftari”** vositasida **650 milliard so'm** mablag' ajratilgani e'tiborni tortadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat tomonidan yoshlar huquqlari himoyalaniishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroki rag'batlantirilishi kafolatlab qo'yildi. Konstitutsiyamizning 79-moddasi birinchi bandida qayd etilganidek: **“Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.”**

Bosh qomusimizda, shuningdek, davlat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanishiga g'amxo'rlik qilishi belgilandi. Bu haqda Konstitutsiyaning 78-moddasi to'rtinchi bandida shunday deyilgan: **“Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga Vatanga bo'sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi”.**

Yana bir muhim yangilik: yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida Asosiy qonunga kiritildi. Konstitutsiyaning 79-moddasi ikkinchi bandiga ko'ra: **“Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”.**

Shu o‘rinda yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan ilk marotaba uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojini ta’minlash davlatning vazifasi etib belgilanganini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Ta’limga oid normalar 50,51 va 52-moddalarda o‘z aksini topdi.

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 53-moddasi birinchi bandida: **“Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi”**, deb ta’kidlangan. Zero, intellektual salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir.

Yuqoridagi maqsadlarga kerakli mablag‘larni yo‘naltirish, yoshlarning tashabbuslari va innovatsion loyihalarini qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, ularning muammolarini tizimli o‘rganish va samarali yechim topish, ta’lim olish va mehnat qilish imkoniyatlarini himoya qilish bo‘yicha aniq amaliy ishlar olib borilmoqda.

Respublikadagi **19,7 mln.nafar** mehnat resurslarining **39,3 foizini** (7,6 mln.kishi) hamda **15,1 mln.nafar** iqtisodiy faol aholining **33,4 foizini** (5,0 mln.kishi) yoshlar tashkil etadi. Har yili umumta’lim, o‘rta-maxsus ta’lim va oliy ta’lim muassasalarini **600-700 ming nafar** yoshlar tamomlab, mehnat bozoriga ilk marotaba kirib keladi.

Xususan, 2023 yil davomida **425 ming 400 nafar** ish bilan band bo‘lmagan yoshlarning bandligiga ko‘maklashish va tadbirkorlik faoliyatini boshlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilgan. Ulardan **66 ming 408 nafar** yoshlar kasb-hunar o‘rganishga jalb etilgan bo‘lib, undan **2 ming 899 nafari** “Yoshlar daftari” ro‘yxatidagilardir.

O‘zbekistonda aholining daromadli mehnat bilan bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka jalb qilish va o‘qitish, o‘zini o‘zi band qilish faoliyati “mahallabay” ishlashga qaratilgan vertikal tizim asosida yuritilayotgani aholi turmush farovonligini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda. Xususan, **9 ming 442 ta** mahallada “mahalla yettiligi” faoliyat olib borib, ularning ichidagi hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari hamkorlikda oliy ta’lim muassasalarini bitirib ishsiz yurgan yoshlarning bandligiga ko‘maklashish maqsadida xonadonbay o‘rganilmoqda.

Bundan tashqari maktab va maktabgacha ta’lim vazirligi ma’lumotlar bazasi va vazirlikning Bandlik axborot tizimini integratsiya qilish ishlari hozirgi kunda davom etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarini 2022/2023 o'quv yillarida **176,2 ming** nafarni bitiruvchilar bitirgan. 2023 yilda **95,3 ming** nafari oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bandligi ta'minlangan.

2023 yilda jami **386 ming 519 nafar** maktab bitiruvchilari mehnat bozoriga kirib kelgan. Shundan **106,7 ming nafariga** bandlik xizmatlarini ko'rsatish orqali bandligiga ko'maklashilgan, **182,2 ming nafari** OTMlarga o'qishga qabul qilingan va qolgan **97,6 ming nafar** maktab bitiruvchilarining bandligini ta'minlash choralari ko'rilmogda. 2024 yil yakuniga qadar **221 ming nafar** yoshlarning bandligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar belgilab olindi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" Strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son Farmonida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga qator vazifalar yuklangan.

Xususan, Dasturda **90 ming nafar** ishsiz yoshlarni kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan yoshlarni chiqishdan oldin moslashtirish, xorijiy tillarga va kasb-hunarga o'qitish hamda xavfsiz, tashkillashtirilgan tarzda mehnat migratsiyasi tizimi asosida xorijda ishga joylashishiga ko'maklashish kabi vazifalar ko'zda tutilgan.

Albatta, belgilangan vazifalar ijrosi ko'plab yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi va o'zining samarali natijalarni beradi.

Qonun bilan belgilangan yoshga yetgach, ularning siyosiy huquqlari doirasida yanada kengayadi. Konstitutsiyaning 34-moddasiga binoan ular kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga uyushish hamda ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqlariga ega bo'ladilar.

Konstitutsiyamizga ko'ra, davlatimiz yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Har qanday davlatning yoshlar siyosatini amalga oshirishidan maqsadi mamlakat iqtisodiy va siyosiy salohiyatini mustahkamlash, davlatchilik asoslarining kelgusi zahiralarini yaratish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy takomillashuvining asosini barpo etishdan iboratdir. Shu sababdan, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod Konstitutsiyaning

ma’no-mazmunini, u istiqlol yillarida erishilgan ulkan tarixiy yutuq ekanligini anglab olishlari, konstitutsiya biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo’llanma, balki g’urur-iftixor, kerak bo’lsa, shu zaminda istiqomat qilayotgan millati, tili, dinidan qat’iy nazar, barcha insonlar uchun mustahkam bit himoya ekanligini his etib yashashlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyamizda davlat yoshlarga g’amxo‘rlik masalasida o‘z zimmasiga g‘oyat muhim majburiyatlarni olgani alohida diqqatni tortadi. Eng asosiysi, mazkur konstitutsiyaviy normalar nafaqat O‘zbekiston yoshlari manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston. 2023. -126.b
2. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi //Xalq so’zi. 2017-yil 8-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.24.01.2020-y. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>. 242 SH.A.SAYDULLAYEV
4. Mirziyoyev Sh. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokrati davlat va fuqarolik jamiyatning eng muhim mezonidir. <https://president.uz/uz/lists/view/3119>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik Palatasining birinchi yig’ilishidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/3303>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining birinchi Majlisidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/3304>.